

HAMSA CHARITY: MEHR-SHAFQAT VA INSONPARVARLIK ASOSIDA BARPO ETILGAN XAYRIYA FAOLIYATI

Fayziev Hamza Hakimovich

*Toshkent davlat tibbiyot universiteti talabasi, O‘zbekiston volontyorlar assotsiatsiyasi
loyiha menejeri, Hamsa charity asoschisi*

Annotatsiya: *Maqsad: Ushbu maqolaning maqsadi Hamsa Charity xayriya tashkilotining tashkil etilishi, faoliyati va jamiyatdagi ahamiyatini yoritishdir.*

Usul: Muallifning shaxsiy tajribasi, amalga oshirilgan loyihalar va amaliy xayriya ishlari tahlil qilindi.

Natija: 2021-yildan buyon tashkilot tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, bolalar va bemorlarga muntazam yordam ko‘rsatib kelinmoqda.

Xulosa: Hamsa Charity jamiyatda mehr-oqibat, insonparvarlik va ijtimoiy mas’uliyatni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Kalit so‘zlar: *xayriya, insonparvarlik, ijtimoiy yordam, saxovat, volontyorlik, Hamsa Charity*

Kirish

Insonparvarlik va saxovat qadimdan sharq xalqlari madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Yaxshilik qil, dengizga tashla” deya bejiz aytmagan. Jamiyatning haqiqiy kuchi uning bir-biriga bo‘lgan mehr va ko‘magida namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamni qo‘llab-quvvatlash masalasi dolzarbdir. Aynan shunday ehtiyojdan kelib chiqib, 2021-yilda otam xotirasiga bag‘ishlab Hamsa Charity xayriya tashkilotiga asos solindi. Mazkur maqolada tashkilotning maqsadi, amalga oshirilgan loyihalar va jamiyat hayotidagi o‘rni haqida so‘z yuritiladi. Maqola xayriya faoliyati bilan shug‘ullanishni istaganlar, volontyorlar va ijtimoiy mas’ul tadbirkorlar uchun mo‘ljallangan.

Hamsa Charity tashkiloti 2021-yildan buyon faoliyatini kengaytirib, ko‘plab viloyatlarni qamrab oldi, jumladan, Toshkent viloyati hududlaridagi Bo‘ka, Bekobod, Angren va Chirchiq shaharlarini ham. Har yili tashkilotning volontyorlari va xayriya guruhi Samarkand shahridagi nogironlar uyi va qariyalar uyiga tashrif buyurib, ularning kayfiyatini ko‘tarish, orzularini bajarish va ijtimoiy izolyatsiyadan chiqishlariga yordam beradi.

Shuningdek, Hamsa Charity faoliyati Sirdaryo viloyatidagi kam ta‘minlangan oilalarga ham qaratilgan. Bu oilalarga oziq-ovqat, dori-darmon va boshqa zarur yordamlar taqdim etilib, ularning hayotini biroz yengillashtirishga intiladi. Obodonlashtirish ishchilar ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi: har ikk oyda ular uchun restoranlarda bayram tadbirlari tashkil etiladi, ularga osh va sovg‘alar beriladi.

Tashkilotning eng katta muvaffaqiyatlaridan biri – kam ta‘minlangan oilalardan chiqqan ikki ayolni Umra ziyoratiga yuborish bo‘ldi. Bu nafaqat ularga ruhiy kuch va ilhom berdi,



balki Hamsa Charity maqsadlaridan birini – ijtimoiy yordam orqali insonlarning hayotida sezilarli o‘zgarish qilishni amalga oshirdi.

Bundan tashqari, Hamsa Charity har yili ro‘za tutayotgan kishilar uchun ko‘chada xayrli iftorlar tashkil qiladi, ularga xurmo va suv tarqatadi, shu bilan jamiyatda saxovat va birdamlik ruhini yanada kuchaytiradi. Ramazon oylarida tashkilot tomonidan uy-joyi cheklanganlar, yolg‘iz qariyalar va kam ta‘minlangan oilalar uchun iftor dasturlari uyushtiriladi, bu esa nafaqat moddiy yordam, balki insoniy iliqlik va mehr-muruvvatni ham tarqatadi.

Hamsa Charityning faoliyati nafaqat moddiy yordam bilan chegaralanmaydi. Tashkilot insonlarni birlashtirish, mehr va hamjihatlikni targ‘ib qilish, ijtimoiy mas‘ul tadbirkorlar va volontyorlarni birlashtirish orqali jamiyatda kuchli ijtimoiy zanjir yaratadi. Har bir loyiha va harakat insoniyatga qilinadigan kichik, ammo bebahod yordam sifatida qadrlanadi. Shu yo‘l bilan Hamsa Charity jamiyatning turmush sharoitini yaxshilash va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Hamsa Charity nafaqat xayriya bilan shug‘ullanadi, balki davlat loyihalarida ham faol ishtirok etadi, bayram va tadbirlarni tashkil qilishda yordam beradi. Tashkilot ichida “Liga dobra” nomli maxsus loyiha ham mavjud bo‘lib, u turli sport va ijodiy turnirlar – futbol, stol tennisi, bowling, o‘q otish kabi musobaqalarni uyushtiradi. Ushbu turnirlarda yig‘ilgan mablag‘lar butunlay onkologik kasalliklar bilan kurashayotgan bolalarga yordam ko‘rsatishga yo‘naltiriladi.

Shuningdek, donorlik faoliyati ham tashkilotning muhim qismi hisoblanadi. Hamsa Charity volontyorlari har 3–4 oyda odamlarni birlashtirib, gematologiya markazida qon topshirish kampaniyalarini o‘tkazadi, shu orqali qon kerak bo‘lgan bemorlarga yordam beradi.

Hamsa Charity shunday kuch va ruhiyatga ega tashkilotki, u faqat yordam berish bilan cheklanmay, ijtimoiy birdamlik va saxovatni targ‘ib qiluvchi yagona maskan sifatida tanilgan. Tashkilotning faoliyati misol bo‘la oladigan bir ko‘prikdir – u yordamga muhtojlarni topadi, ular bilan do‘stona munosabat o‘rnatadi va jamiyatning barcha qatlamlarini yaxshilik sari ilhomlantiradi.

Asosiy qism

Hamsa Charity tashkiloti o‘z faoliyatini bir nechta asosiy yo‘nalishlarda olib boradi:

1. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga yordam

Kam ta‘minlangan oilalarga oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va zaruriy maishiy buyumlar yetkazib beriladi. Ramazon oyi, Qurbon hayiti kabi muborak kunlarda maxsus xayriya aksiyalari tashkil etiladi.

2. Bolalarga ko‘mak

Yetim va nogironligi bo‘lgan bolalarga moddiy va ma‘naviy yordam ko‘rsatish, bayram tadbirlarini tashkil etish, maktab anjomlari bilan ta‘minlash ishlari amalga oshiriladi.

3. Tibbiy yordam loyihalari

Og‘ir kasallikka chalingan bemorlar uchun mablag‘ yig‘ish, dori-darmon va operatsiya xarajatlarini qoplashga ko‘mak berish tashkilot faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

4. Jamiyatda xayriya madaniyatini rivojlantirish



Tashkilot nafaqat yordam ko‘rsatadi, balki insonlarni mehr-shafqat va saxovatga undaydi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali xayriya tashabbuslari keng targ‘ib qilinadi.

Shaxsiy tajribam shuni ko‘rsatdiki, xayriya faqat moddiy yordam emas, balki insonning qalbiga umid berishdir. Ba‘zan oddiy e‘tibor va qo‘llab-quvvatlash inson hayotini o‘zgartirishi mumkin.

Xulosa

Hamsa Charity O‘zbekiston Volontyorlar Assotsiatsiyasi tarkibida faoliyat olib boradi. Aynan shu hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash tufayli tashkilot 2021-yildan buyon to‘xtovsiz ravishda xalqimizga xizmat qilib kelmoqda. Assotsiatsiya doirasida olib borilayotgan ishlar nafaqat mamlakatimiz hududida, balki xalqaro maydonlarda ham e‘tirof etilmoqda. Bugungi kunda Hamsa Charity va uning volontyorlari Qozog‘iston, Moskva va Turkiyada o‘tkazilgan tadbirlarda ishtirok etib, o‘zbek volontyorlik harakati, milliy qadriyatlarimiz va insonparvarlik madaniyatini munosib namoyish etishga muvaffaq bo‘ldi.

Bu loyiha men — Hakimova Farangiz tomonidan otamning yorqin xotirasiga bag‘ishlab tashkil etilgan. Har bir amalga oshirilayotgan loyiha, har bir yordam qo‘li — bu nafaqat xayriya, balki otamning nomini sharaf bilan davom ettirish, uning ezgu fazilatlarini hayotda namoyon etishdir. Men har kuni ushbu mas‘uliyatni chuqur his qilgan holda, xalqimizga foydali bo‘lish, yoshlarimizni ezgulikka chorlash va jamiyatimizda mehr-oqibatni yanada mustahkamlash uchun tinimsiz harakat qilaman.

Hamsa Charity bugun shunchaki xayriya tashkiloti emas — u fidoyilik, vatanparvarlik va insoniylik maktabiga aylangan. Bu yerda har bir volontyor nafaqat yordam beradi, balki o‘zi ham ma‘naviy jihatdan ulg‘ayadi. Bizning maqsadimiz — nafaqat muhtojlarga ko‘mak berish, balki butun jamiyatni yaxshilik atrofida birlashtirishdir.

Zero, yaxshilik hech qachon zoye ketmaydi. Saxovat bilan qilingan har bir amal kelajakda yanada kuchli, mehrlil va birdam jamiyat poydevoriga aylanadi. Hamsa Charity esa ana shu poydevorni mustahkamlash yo‘lida o‘z sa‘y-harakatlarini davom ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Alisher Navoiy asarlari.
2. Ommaviy axborot vositalarida e‘lon qilingan xayriya faoliyati haqidagi maqolalar.

3. Internet manbalari (ijtimoiy loyihalar va volontyorlik faoliyati bo‘yicha).

4. Muallifning shaxsiy tajribasi va amaliy faoliyati.

Tashkilotning ijtimoiy tarmoqlari

Instagram - Hamsa_charity

Telegram - @hamsa_charity2021